

## **TEXNOLOGIYA FANIDAN “FARTUK TIKISH” MAVZUSINI STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TASHKIL ETISH.**

*NamDPI, Aniq fanlar kafedrasida mudiri  
Dotsent Matkarimov Abduraxim Muxammadjanovich  
Texnologik ta'lim yo'nalishi  
2-bosqich talabasi Qahharova Husnida Dilmurod qizi.*

Hozirgi zamon ta'limida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvini qo'llash ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. STEAM dasturining asoslari shundaki STEAM tizimi an'anaviy ta'lim metodlaridan farqli o'laroq, o'quvchilarni masalalar yechishga kompleks yondashishga undaydi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning muammolarni mustaqil tahlil qilish, ijodiy fikrlash, jamoada ishlash va o'z g'oyalarini amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

STEAMning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Integratsiya – turli fanlarni o'zaro bog'liq holda o'rganish.
2. Innovatsiya – texnologiya va san'atni amaliyotda qo'llash.
3. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish – muammolarga noodatij yondashuvni shakllantirish.
4. Ko'nikmalarni rivojlantirish – muhandislik, matematik va texnik bilimlarni qo'llash orqali amaliy natijalarga erishish.

STEAM dasturi doirasida fartuk texnologiyasini tikish jarayonini o'qitishga bag'ishlangan bo'lib, bu orqali talabalarning texnik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari o'rganiladi. STEAM yondashuvi fartuk texnologiyasini o'rganishda juda samarali, chunki bu jarayon ilm-fan, texnologiya va san'atni o'z ichiga oladi.

Fartuk texnologiyasini tikishda STEAM yondashuvini ko'rib chiqadigon bo'lsak, fartuk tikish texnologiyasini o'rganishda STEAMning barcha elementlarini tatbiq etish imkoniyati mavjud. Fartuk–bu ish yoki maishiy faoliyatda ishlatiladigan amaliy kiyim turi bo'lib, u o'ziga xos texnologik jarayonni talab qiladi. Tikish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Science (Fan)–Material xususiyatlarini tahlil qilish

Fartuk tikish uchun tanlanadigan matoning fizik va kimyoviy xususiyatlari muhim hisoblanadi. Matoning mustahkamligi, elastikligi, chidamliligi tahlil qilinadi. Mato tarkibi (paxta, sintetik yoki aralash matolar) o'quvchilar bilan birga o'rganiladi. Fartukning amaliy vazifasiga qarab, unga mos matolar tanlanadi (ishlab chiqarish, pazandachilik yoki san'at uchun fartuk).

2. Technology (Texnologiya)–Zamonaviy uskunalar qo'llanilishi hamda tikuv mashinalarining zamonaviy modellaridan foydalanish (electron va kompyuterlashtirilgan tikuv mashinalari). Lazer yordamida matolarni kesish texnologiyasini ko'rsatish. Qirralarni choklash va sifat nazorati uchun innovatsion qurilmalardan foydalanish.

3. Engineering (Muhandislik)–Konstruktsiya yaratish. Fartuk shakli va konstruksiyasi chizmalar orqali ishlab chiqiladi. Texnologik jarayonning har bir bosqichi–qirqish, biriktirish va choklash texnik jihatdan aniq bajariladi. Mahsulot qulayligini ta'minlash uchun loyihalash standartlariga rioya qilinadi.

4. Art (San'at)–Estetik dizayn fartuk dizaynida ranglar uyg'unligi va bezaklarni tanlash. Milliy naqshlar, zamonaviy grafik elementlar yoki bezaklarni qo'llash. Bezash uchun kashta, termoplast, bosma naqsh kabi texnikalar qo'llaniladi.

5. Mathematics (Matematika)–O'lcham va hisob-kitoblar va fartuk uchun andozalar yaratishda matematik formulalar qo'llaniladi. Matoning sarfi, chok joylarining aniq joylashuvi hisob-kitob qilinadi. Andoza qirqimlarini optimallashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

STEAMning fartuk texnologiyasidagi amaliy qo'llanilishiga ham e'tibor beradigon bo'lsak, fartuk tikish jarayoni o'quvchilarga nafaqat bir sohani, balki fanlararo bog'liqlikni tushunishga yordam beradi. Buni quyidagi loyiha misolida ko'rishimiz mumkin.

O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, fartuk uchun, mato hamda fason tanlash va tikish jarayonlarini mustaqil amalga oshirish ko'nikmasini rivojlantiradi.



**Amaliyot jarayoni:** fartuk tikish jarayonida kerak bo'ladigan asbob-uskunalarini qo'llash bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni olib borish va amalda bajarish. Fartukni sifatini yanada oshirish uchun yangi material va yangi usullarni qo'llash maqsadga muvofiq (masalan, suvga chidamli qoplamala).

Buni quyidagi loyiha misolida ko'rishimiz mumkin. “Zamonaviy pazandachilik fartukni takomillashtirish”. Ushbu loyiha bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi.

1. Loyihadan maqsadi shuki ish jarayonida zamonaviy pazandachilik fartukni mustaqil ravishda amalda bajarishdan iborat.

2. Bosqichlar: Matoni tanlash va mato mos ravishda turli fasondagi fartukni yaratish. Fartukni chizmada tasvirlash va matoga joylashtirish. Matoni qirqish va qirqilgan bo'laklarni to'g'ri baxiya chok bilan (1sm dan 2 sm gacha) tikish

jarayonini bajarish. Yarim tayyor fartukni hohish istakka qarab bezash, uni modellashtirish va pardoqlash jarayoni bilan yakunlash. Tayyor mahsulotni namoyish qilish va kamchiliklarni bartaraf etish lozim.

3. Natija: O'quvchilar ushbu loyihani amalga oshirish orqali o'zlarida amaliy bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga yordam beradi .

STEAM dasturi asosida fartuk texnologiyasini tikishni o'qitish orqali o'quvchilar nazariy va amaliy bilimlarni birgalikda o'zlashtiradi. Bu yondashuv ta'lim jarayonini samarali, qiziqarli va foydali qiladi. STEAM yondashuvini tikuvchilik texnologiyasi kabi fanlarga joriy etish ta'lim tizimining innovatsion rivojlanishida muhim qadamlardan biri deb hisoblashimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" T.: 2008. – 128 b.

2. A. Mavlonov va boshqalar. O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. «Tafakkur bo'stoni» nashriyoti, Toshkent, 2013. - 142 bet.

3. Djuraev, A., & Sh, K. (2019). Analysis of the results of an experiment to determine the bending of the shaft of a gin saw cylinder. *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (Indiya)*, 6(9), 10666-10670.

4. B.X.Raximov., A.Mavlyanov., V.CHoriev. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. O'quv qo'llanma.–T.: Fan va texnologiyalar., 2009-124 b.

5. Худайкулов Ш. и др. ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ ИЗГОТОВЛЕНИЮ КАРТИН ГРАФИЧЕСКИМ СПОСОБОМ ИЗОНИТОВЫХ НИТЕЙ //International Journal of Formal Education. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 295-300.

6. N.N. Azizxo'jaeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma.Toshkent 2006 y. 159 b.

7. Xomidova, R., & Xudayqulov, S. S. (2024, May). STEAM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH SAMARADORLIGI. In *Past and Future of Medicine: International Scientific and Practical Conference* (Vol. 5, pp. 14-16).

8. Ziyamova Gulbaxor To'laboyevna. Texnologiya fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish hamda samaradoligini oshirishda grafik organayzer texnologiyasidan foydalanish. *Journal of Universal Science Research*. ISSN (E): 2181-4570 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-11.

9. Juraev, N. N., & Djuraev, A. (2019). Khudaykulov Sh. Vertical oscillationns of the working body installed on an elastic bearing support. *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (Indiya)*, 6(12), 12135-12138.

10. Abdugaffor Khurmamatov, Abdurahim Matkarimov, Alisher Auesbaev, Usnatdin Utegenov Results Of Experiments On Studying The Composition And Purification Of Technical Water Of Oil And Gas Processing Plant // Processes of Petrochemistry and Oil Refining 2023.- №4

11. А.Маткаримов Применение технологии проблемного обучения в преподавании основ безопасности жизнедеятельности. Проблемы науки 2017.- №7 (20)

12. А.Маткаримов Измерение и контроль вибраций при производственном процессе. Достижения науки и образования 2017.- №5 (18)

13. А.Маткаримов Проблема охраны труда и промышленная безопасность на опасных производственных объектах. Достижения науки и образования 2017.- №6 (19)